Science technology & Digital finance	NOVEMBER,2023
ISSN:2992-9199	https://supportresult.uz/index.php/stdf/index

Science technology & Digital finance

journal homepage: https://supportresult.uz/index.php/stdf

SPIRITUAL FACTORS IN SOCIETY AND SOCIAL RELATIONS

[1]Nurlan Baltabayev, [2]Aliqulov Begzod

[1]Teacher of Kazakhstan State University named after Mukhtar Avezov.
[2]Teacher of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.

ДУХОВНЫЕ ФАКТОРЫ В ОБЩЕСТВЕ И СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

[1]Нурлан Балтабаев, [2]Аликулов Бегзод

[1]Преподаватель Казахского государственного университета имени Мухтара Авезова.
[2]Преподаватель Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.

JAMIYAT VA IJTIMOIY MUNOSABATLARDA MA'NAVIY OMILLAR

[1]Nurlan Baltabayev, [2]Aliqulov Begzod

[1]Muxtor Avezov nomidagi Qozog'ston davlat universiteti o'qituvchisi.
[2]O'zbeksiton Milliy universitetining Jizzax filiali o'qituvchisi.

abstract

This article provides information on the spiritual factors present in society and social relations. In addition, the concept of society, definitions of society and types of society, the process of formation of society are also described.

аннотация

В этой статье представлена информация о духовных факторах, присутствующих в обществе и социальных отношениях. Кроме того, даны понятия общества, определения общества, а также сведения о типах общества, процессе формирования общества.

annotatsiya

Ushbu maqolada, jamiyat va ijtimoiy munosabatlarda mavjud bo'lgan ma'naviy omillar haqida ma'lumotlar berilgan. Qolaversa, jamiyatning tushunchasi, jamiyatning ta'riflari hamda jamiyatning turlari, jamiyatning shakllanish jarayoni haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Keywords:

society, personality society, spirituality, spiritual factors.

Ключевые слова:

общество, общество личности, духовность, духовные факторы.

Kalit so'zlar:

jamiyat, kishilik jamiyati, ma'naviyat, ma'naviy omillar.

©2023. *Nurlan Baltabayev, Aliqulov Begzod.*

Kirish

Jamiyat, ijtimoiylik, ijtimoiy munosabatlar, siyosat kabi tushunchalar ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani bois, ularni sharhlash va amalga tatbiq etish masalalariga turlicha yondoshilgan. Avvalo, ijtimoiylik jamiyatga oidlikdir. «Jamiyat»ga hamisha juda keng qamrovli tushuncha sifatida qaralgan. Bu so‘z insonlarning biror maqsad yo‘lidagi ixtiyoriy birlashmalariga nisbatan ham, tabiiy zarurat, yoki moddiy, ma’naviy ehtiyoj tufayli turmush tarzi, faoliyatida umumiylik aks etgan jamoalarga nisbatan ham, shuningdek, milliy davlat tuzilmalariga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin.

«Jamiyat» tushunchasini bir ma’noda ta’rif qilinganda bir qancha nazariy, metodologik va etimologik murakkabliklarga duch kelinadi. Birinchidan, bu tushuncha hajmi va mazmuni jihatdan juda keng. Ikkinchidan, bu tushuncha mavhum, ya’ni falsafiy kategoriyadir. Uchinchidan, bu tushuncha dinamik, ya’ni rivojlanuvchandir. To‘rtinchidan, jamiyat faqat falsafa fanining predmeti bo‘lmasdan, hamma ijtimoiy fanlar majmuining predmetidir. Beshinchidan, «jamiyat» atamasi turli ma’nolarda ishlatilishi mumkin. Garchi, har birining o‘zagida jamlik, jamlanish ma’nosi yotsada, har qanday jamiyat tarkibi, faoliyati, maqsadiga qarab, turlicha talqin qilinadi. Aytaylik, «Qizil yarim oy jamiyati» ma’lum bir turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashgan ixtiyoriy uyushma bo‘lsa, «kishilik jamiyati»da insoniyatga xos bo‘lgan umumiylik aks etadi. Tarix fanlarida «ibtidoiy jamiyat», «o‘rta asrlar jamiyati», «amerika jamiyati» kabi insoniyat yoki konkret mamlakat tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichi ma’nosida ham qo‘llaniladi. [1]

Tahlil va muhokamalar

Insonlarning hayot kechirish mobaynida o‘zaro munosabatlari va faoliyatlari amal qilar ekan, jamlik, hamkorlik yashash zaruratiga aylanar ekan, jamiyat ham amal qiladi. Demak, kishilik jamiyati - ijtimoiy ehtiyojdir. Aflotun jamiyatning nafaqat insonlarning birlashuvi, balki hayot kechirishlari uchun zarur shartlardan biri ekanligini e’tirof etib, «kishilar ehtiyojlariga ko‘ra bir-birlariga muhtojdirlar» degan fikrni ilgari surgan. [2, 94] Xuddi shu fikrni o‘z vaqtida Forobiy ham ta’kidlagan edi.

Ijtimoiy birlik hayotiy ehtiyoj ekan, bu yerda faqat moddiy ehtiyoj tushunilmasligi kerak. Kishilar birgalikda faoliyat olib borishlari jarayonida o‘zaro fikrlashadilar, o‘zaro his-tuyg‘ularini ifoda etadilar. Odatda ularning birgalikdagi faoliyatini maqsadlar birligi bilan bir qatorda, qarashlar, munosabatlar birligi, tuyg‘ular yaqinligi belgilab beradi. Bu kishilarning ma’naviy ehtiyoj nuqtai-nazaridan bir-biriga muhtoj ekanligini aks ettiradi [3, 464].

Xuddi shuningdek, miloddan avvalgi 341-270 yillarda yashab o‘tgan Empidoklning fikricha, «Kishilar o‘z hayotini yo‘lga qo‘yish uchun ongli ravishda

uyushadilar.» Arastu jamiyatni «tabiatning hosilasi», o‘rta asr falsafasi - Alloh yaratgan degan fikrni olg‘a suradi. Forobiy jamiyatning paydo bo‘lishini teleologiya - oldindan belgilangan maqsadga muvofiq nuqtai nazardan tushuntiradi - jamiyat odamlarning komillikka erishishi uchun zarur, deb hisoblaydi. Jamiyat tushunchasini tahlil etishda bir qancha ta’rif va yondashuvlarni uchratish mumkin. Jamiyat kishilar orasidagi shunday o‘zaro ijtimoiy munosabatlar mahsuli, o‘zaro aloqadorlik bo‘lib, bu ijtimoiylikning natijasi hisoblanadi (M. Veber); jamiyat – bu, kishilar o‘rtasidagi shunday munosabatlar sistemasiki, uning birlashtiruvchi asosi qadriyat va normalar hisoblanadi (T. Parsons). Nemis faylasufi Maks Veber (1864-1920) fikricha, jamiyat insonlarning o‘zaro ta’siridan, ya’ni ijtimoiy xatti-harakatlardan tashkil topgan tizim bo‘lib, boshqa odamlarning xatti-harakatiga qarshi javob tariqasida yo‘naltirilgandir. M. Veber jamiyat rivojining asosini ijtimoiy faoliyatda, deb hisoblaydi. Amerika sotsiologi va ijtimoiy falsafa bo‘yicha mutaxassis - faylasuf Tolkott Parsons (1902-1979) fikricha, jamiyat qadriyatlar va me’yorlar bilan bog‘langan odamlarning munosabatiga asoslangan tizimdir. Inson shularga asoslanib o‘z ijtimoiy faoliyatini amalga oshiradi. T. Parsonsni ma’lum ma’noda M. Veberning g‘oyaviy merosxo‘ri deyish mumkin. Taniqli faylasuf P. A. Sorokin (1889-1968) jamiyatga individlar va ijtimoiy guruhlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati bilan belgilanadigan, bir-biri va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari natijasida vujudga keladigan integral yaxlitlik sifatida ta’rif beradi. Uning fikricha, «jamiyat mavjud bo‘lishi uchun hech bo‘lmasa ikki kishi bo‘lishi va ular bir-birlari bilan o‘zaro ta’sir bog‘lanishida bog‘langan bo‘lishi kerak. Bu eng oddiy jamiyatning ko‘rinishidir...». P. A. Sorokin jamiyatni gorizontal, vertikal yo‘nalishlarda va fluktuatsiya (tebranish) tarzida murakkab harakatda bo‘lgan ijtimoiy-madaniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtai nazaridan tavsiflagan.

Jamiyat – bu, insonlarning shunday birlashmasiki, uning yaxlitligi ijtimoiy ishlab chiqarish, ya’ni insonlarning umuman ishlab chiqarish, o‘z hayotini quvvatlash va takror ishlab chiqarishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bilan ta’minlanadi [4, 509-510]. «Jamiyat bir butun ijtimoiy-siyosiy organizm, uning har bir elementidagi o‘zgarish, boshqa qismiga muqarrar ravishda ta’sir ko‘rsatadi.» [5, 51]

Demak, «jamiyat» tushunchasi quyidagi ma’nolarni qamrab olgan:

1. Jamiyat tushunchasida nafaqat hozir yashab turgan kishilarning faoliyatlari, balki ularning o‘tmishi hamda kelajak avlodlar hayoti, ya’ni insoniyat tarixining ilk boshlanishidan tortib, uning kelajagigacha, barcha jihatlari aks etadi.

2. Bu tushunchada muayyan xildagi jamiyatlarning o‘ziga xos jihatlari ham ifodasini topadi. Masalan, «antik davr jamiyati», «Yevropa jamiyati», «osiyocha jamiyat» va hokazolar.

Mazkur tushunchada bir-biriga bevosita bog‘lanmagan holda mavjud bo‘lgan jamiyatlar ham ifodalanadiki, bunda ularning makon va vaqt bilan aloqador jihatlari e’tiborga olinadi. Bularga misol tariqasida qadimgi saklar, O‘rta Osiyo jamiyatlari, Yaqin Sharqdagi arab jamiyatlari yoki G‘arbiy Yevropadagi jamiyatlar va boshqalarni olish mumkin.

Jamiyat ijtimoiy tizim sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- hayotiy ne’matlarni ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarishni tizimlashtirish;
- takror ishlab chiqarish va insonni ijtimoiylashtirish;
- mehnat natijalarini taqsimlash;
- davlatning boshqaruv faoliyatini qonunga muvofiqligini ta’minlash;
- siyosiy tizimlarni strukturalash;
- mafkuralarni shakllantirish;
- madaniyatlar va milliy-ma’naviy qadriyatlarning tarixiy davomiyligini ta’minlash.

Jamiyatda, insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan inson va borliq, odamlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro faoliyat amal qilib, uning asosida inson manfaati yotadi. Aslida inson hayotining mazmuni manfaatlar asosida tashkil topadi. Manfaat - istak va ehtiyoj mahsuli. Eng birlamchi manfaatlar inson hayot kechirishi uchun zaruriy ehtiyoj hisoblangan omillardan iborat. Bu omillar moddiy va ma’naviy ko‘rinishda bo‘ladi. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish, manfatdorlik jamiyatdan tashqarida ro‘y bermaydi. Shaxsiy manfaatdorlik jamoaviylik tarkibida bo‘lishi ob’ektiv zaruratdir. Shaxs manfaati - jamoa manfaatlariga mos kelishi shu jamoadagi birlikka, manfaatlarga yondoshuvda esa umumiylikka asos bo‘ladi va ayrim shaxsiy manfaatlar jamoaga, boshqacha aytganda, elga, millatga xoslikdan kelib chiqadi.

«Manfaat real bir narsaga bo‘lgan manfaatni, talabni ifoda etadi. Manfaatsiz kishi yo‘q. U siyosiy o‘zlikni anglashda sub’ektning ijtimoiy-siyosiy hayotni yaxshilash istagi sifatida yuzaga keladi. Manfaatlari o‘zaro yaqin odamlar tez birlashadilar.» [6, 76-77]

Buning negizida, muallif ta’kidlaganidek, xalq, millat manfaatlarini idrok etish, ularni qondirish orqali milliy taraqqiyotni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadi yotadi. Demak, jamiyatning asos-o‘zagida inson va uning manfaati yotadi. Inson manfaatini amalga oshirishga qaratilgan har qanday faoliyat va munosabatlarni tartibga soluvchi ma’lum bir tizim, ichki qurilma tashkil topgandagina jamiyat yuzaga keladi. Shaxs manfaati va jamiyat manfaatlarida nomutanosiblik bo‘lsa, ijtimoiy adolat mezonlari buziladi. Jamiyat mustahkamligiga putur yetadi. Zero, jamiyat - shaxs uchundir va o‘z

navbatida shaxs ham jamiyatga mansubdir. Fransuz muttafakkiri Ognyust Kontning ta'kidlashicha, jamiyat vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra yaxlit ijtimoiy organizm bo'lib, u sub'ektlar(individ, tabaqa, sinf)ning rivojlanishiga bog'liqdir. [7, 16] Agar shaxs bo'lmasa, jamiyat bo'lmaydi, jamiyat barcha ichki qurilmalarini shaxs harakatga keltiradi va uni amalga oshirish jarayonida uning o'zi ham ijtimoiylashadi. Shaxs, o'zining jamiyat tuzilmalarini tashkil etuvchi, harakatga keltiruvchi, uning mutanosibligini ta'minlovchi va bu jarayonlarni boshqaruvchi kuch ekanligini anglashi, bu - uning o'z faoliyatiga ijtimoiylik nuqtai-nazaridan yondoshishiga asos bo'ladi. U o'z manfaatlarini ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirsa, uning ijtimoiy hayotdagi faolligi oshadi. «Jamiyat - insoniyat tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Ijtimoiy munosabatlar ichida eng asosiysi, bu-ijtimoiy ong shaklini belgilaydigan munosabatlar - iqtisodiy munosabatlardir... Jamiyat taraqqiyotini butunlay iqtisodiy munosabatlarga bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Bu - moddiyunchilikdir. Odamlarning irodasi, azmu-qarori, tarixiy shaxslarning faoliyati, ma'naviy omillarni ham unutmaslik kerak.» [8, 208]

Demak, ijtimoiy munosabatlar shaxs manfaatining ijtimoiylikka yo'naltirilgan ko'rinishi bo'lib, insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan inson va borliq, odamlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro faoliyatidir. Jamiyatda namoyon bo'ladigan va harakat qiladigan ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'rganish shuni ko'rsatadi-ki, ularga taalluqli tarkibiy qismlar doimo moddiy va ma'naviy-mafkuraviy munosabatlar majmuasi doirasida amal qiladi, ya'ni, o'z mohiyat e'tibori bilan ijtimoiy munosabatlar moddiy va ma'naviy mazmunda bo'ladi. Moddiy ijtimoiy munosabatlarga iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari kiradi. Ustqurmaviy munosabatlar siyosiy, huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy munosabatlarga ahloqiy, mafkuraviy, diniy va boshqa munosabatlar jamlanadi. «...bir-birlaridan farq qiluvchi ijtimoiy munosabatlarning bu ko'rinishlari o'z mazmuniga ko'ra, o'ziga xoslik hamda umumiylik, qarama-qarshilik hamda birlik mazmuni bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Moddiy va mafkuraviy munosabatlar inson va jamiyat aloqadorligining sub'ektlar manfaatiga asoslangan ijtimoiy in'ikosi sifatida o'ziga xos mundarijaga ega bo'lsada, har biri alohida, sof holda harakat qilmaydi. Ijtimoiy munosabatlarning bu ko'rinishlari mazmuniga o'ziga xoslik, qarama-qarshilikdan ko'ra, ular o'rtasidagi umumiylik va birlik birlamchidir.» [9, 81]

Jamiyatda ijtimoiy institutlarning muayyan funksiyalari ijtimoiy munosabatlarda aks etadi. Ijtimoiy munosabatlar kishilar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, tashqi tabaqalar va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar va ularning ichki iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy mafkuraviy va madaniy sohalardagi faoliyatini tashkil qiladi. Alohida olingan inson - jamiyatning, ijtimoiy munosabatlarning boshlang'ich

unsuri hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar rivoji bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlarning asosiy omili ijtimoiy ong bo‘lib, uning jamiyatdagi o‘rni shundan iboratki, u ijtimoiy munosabatlarning amal qilishida ijobiy fazilatlarni yoki salbiy illatlarni namoyon qilishi mumkin.

Xulosa

Ijtimoiy munosabatlardagi mushtaraklikda ma’naviy-mafkuraviy munosabatlar mavqeining, mazmuniy o‘lchov me’yorining pasayishi shunda namoyon bo‘ladi-ki, ayrim jamiyat a’zolari ruhiyatida loqaydlik, befarqlik, boqimandalik, poraxo‘rlik, xudbinlik, xo‘jasizlik va ma’suliyatsizlik, laganbardorlik va guruhbozlik, safsatabozlik kabi illatlar o‘rnashib qoladi. Bu o‘rnashuvning ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan salbiy ta’siri shundaki, jamiyatning iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy va ijtimoiy sohalarining rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi va jamiyatga xavf soluvchi holatlar vujudga kelishi mumkin.

«Jamiyatning jami jabhalaridagi ijtimoiy munosabatlar mazmunida shakllanib, rivojlanib borgan mazkur salbiy holatlar ko‘p kezlarda o‘z holiga tashlab qo‘yilgani sababli ham iqtisodiy munosabatlarda – pinhona iqtisod; ijtimoiy munosabatlarda – mahalliychilik va millatchilik; siyosiy munosabatlarda - ekstremizm; ma’naviy munosabatlarda - ma’naviy qashshoqlik; huquqiy munosabatlarda – qonunbuzarlik va jinoyatchilikning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit vujudga keladi.» [9, 81]

Shu bois, inson va jamiyat, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar bilan birga odamlar, sotsial guruhlar, sinflar, millatlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda ijtimoiy ongning milliy-ma’naviy va mafkuraviy omillar asosida amal qilishini unutmaslik lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qarang.N. Jo‘raev, Sh. Azizov. Ijtimoiyot asoslari. «Ma’rifat-madadkor» n., T., 2003.
2. Qarang. Dumbadze N. Abadiyat qonuni. T., Sharq-Matbaa AK, 2004.
3. Shermuxamedova N. Falsafa:o‘quv-uslubiy majmua. T., NOSHIR, 2012.
4. S. Mamashokirov, Sh.Tog‘aev. «Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari.» Toshkent. «Ma’naviyat» n., 2007.
5. V. Qo‘chqorov. Milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. «Akademiya»., Toshkent, 2007.
6. Ijtimoiy falsafa. O‘quv qo‘llanma. T., 2008
7. A. Ibrohimov. «Bizkim, o‘zbeklar.» «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati. Toshkent. 1999.
8. Aliqulov B. O ‘ZBEKISTON SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARIXI VA UNI O ‘RGANISHDA AFROSIYOB YODGORLIGINING TUTGAN O ‘RNI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 116-119.